

---

## ODAMLAR BUGUNGI KUNIDAN ROZI BO'LIB YASHASHSIN

**Respublikamizning har bir hududida bo'lgani singari joriy yilda Qo'shtepa tumanida ham keng ko'lAMDAGI bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Mahallalarda eng nosoz ichki yo'llarni ta'mirlash ishlari olib borildi, aholini toza va sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlashga, shuningdek, tomorqalarini sug'orishlariga alohida e'tibor qaratildi.**





Tumanimizning eng olis qishloqlari ham e'tibor markazida. Odamlarning tinch va farovon, bugungi kunidan rozi bo'lib yashashi uchun amaliy harakat qizg'in olib borilyapti. Xususan, Qizilariq mahalla fuqarolar yig'ini hududida 1 dona tik artizan ichimlik suvi qudug'i, Shahartepa va Qo'rg'onacha mahalla fuqarolar yig'inlari hududida 1 donadan sug'orish qudug'i o'rnatildi. Shuningdek, Bo'ston mahalla fuqarolar yig'inida 1 dona sug'orish qudug'i ta'mirlandi.

**Bugun tuman hokimi I.Novikov ushbu mahallalarda bo'lib, loyihalar doirasida olib borilgan ishlar bilan tanishdi.**



**Darhaqiqat, qo'shtepaliklarni hursand qiladigan loyihalar hali bisyor va bunday loyihalar kelgusi yilda ham yana amalga oshiriladi. Zero, odamlar bugungi kunidan rozi bo'lib yashashsin.**

3 / 3